

O'SMIRLAR ORASIDAGI ZO'RAVONLIK VA ULARNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

Klicheva Laziza

Termiz davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709569>

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirda o'smirlar orasidagi zo'ravonlikning asosiy sabablarini va uni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni yoritishga qaratilgan. Hozirda o'smirlardagi jizzakilik, jahldorlik, yolg'onchilik, ruhiy holatning buzilishi kabi turli sabablarni misol qilish mumkin. Zo'ravonlik jismoniy, og'zaki hamda jinsiy ko'rinishda turli shakllarni o'z ichiga oladi. Bunday xatti-harakatlar zo'ravonning ham, jabrlanuvchining ongida ham salbiy psixologik oqibatlariga olib keladi. Bunday jinoyat turi jamiyatda, oilalarda uchraydigan dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu tezis o'smirlar orasidagi bu kabi jinoyatlarning nima sababdan kelib chiqayotganligini va uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qanchalik samara berayotganligini anglashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlar, zo'ravonlik, profilaktika ishlari, oilaviy muhit, sabab – oqibatlar, chora-tadbirlar.

Bu faza inson hayotidagi hal qiluvchi davr bo'lib, tashqi ko'rinish va xulq-atvorda aniq o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Binobarin, inqiroz momenti rivojlanishning ushbu bosqichida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi kutiladi. Organizmning tez o'sishi va fiziologik qayta tashkil etilishi davrida ko'pchilik o'smirlar tashvishga duch kelishadi, qo'zg'aluvchanlik kuchayadi va o'z-o'zini hurmat qilish pasayadi.

Bundan tashqari, ushbu rivojlanish bosqichining o'ziga xos xususiyatlariga tez-tez kayfiyat o'zgarishi, hissiy o'zgaruvchanlik va shodlik va tushkunlik o'rtasidagi keskin o'tishlarni boshdan kechiradigan o'smirlar kiradi. Yaqinlariga nisbatan o'jar xatti-harakatlardan keyin o'z-o'zidan norozilik hissi paydo bo'ladi. Ushbu bosqichda o'smirlarning o'z-o'zini idrok etishida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi, chunki ular tezroq balog'atga yetish va boshqalar tomonidan kattaroq deb hisoblanishga intilishlari bilan azoblanadi.

Bu turdagi jinoyatlarning sabablarini o'rganishda hozirda turli tadqiqotlar olib borilmoqda va ularga bir qancha misollar keltiriladi. Jinoyatning qanday turi bo'lmasin, undan qolgan salbiy oqibatlar zo'ravonlarda ham, jabrlanuvchilarda ham aks etadi. Bu kabi oqibatlar bir qancha boshqa oqibatlarni ham keltirib chiqaradi va vaqtinchalik, og'ir yoki butun umr qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Bunday holatlarga duch kelishning oldini olish maqsadida, avvalo, uydagi muhit, otanonaning bolasiga nisbatan bo'layotgan munosabatini, maktab va boshqa oliy ta'lim muassasalarida bolaning o'zini tutishini, atrofdagilarning unga bo'lgan munosabatini o'rganish eng muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Muammo aniqlangan taqdirda ham soha mutaxassislari bilan birgalikda uning oldini qanday olishni, boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligini, bolaga ruhiy sog'lomlikni qaytarish kabi qator vazifalar yuklanadi.

Muassasalarda profilaktika ishlarini olib borish, zo'ravonlikka duch kelganda qanday munosabat bildirish va yo'l tutish kerak ekanligini o'rgatish va bu kabi ma'lumotlarni berish jinoyatlarning qisqa bo'lsa-da kamayishiga yordam beradi.

O'smirlik davrida boshdan kechirilgan stress ko'plab organlar va tizimlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, natijada charchoqning kuchayishi, immunitetning pasayishi, tana vaznining o'zgarishi va kasalliklarning ko'payishi kabi murakkab biokimyoviy va fiziologik

buzilishlar paydo bo'ladi. Ushbu davrda o'smirlar tez-tez sezilarli charchoq, bosh og'rig'i, nafas olish qiyinlashuvi, yurak og'rig'i, mushaklarning kuchlanishi va oshqozon-ichak traktida noqulayliklarga duch kelishadi. Shu bilan birga, biz doimiy ravishda tan olishimiz kerakki, stressning hissiy ifodalari xavflidir, chunki ular ongning ko'p qirralariga, hissiy holatga ta'sir qiladi va pessimistik talqinni beradi. Stressga uzoq vaqt ta'sir qilish o'smirda qayg'u, sabrsizlik, tajovuzkorlik, dushmanlik va hissiy buzilishlarni rivojlanish ehtimolini oshiradi.

Stressli vaziyatlarning sub'ektiv va ob'ektiv sabablari titroq qo'llar, titroq ovoz, nafas olish tezligining o'zgarishi, nutq funktsiyalarining pasayishi va hissiy reaksiyalarning pasayishi bilan tasdiqlanadi. O'smirlarning 50% dan ortig'i stressli vaziyatlarda ishonchsiz xulq-atvorni namoyon qiladi va hayotning o'zgarishi, atrof-muhit o'zgarishi va turmush tarzi o'zgarishiga moslashish uchun kurashadi.

Ular muammoni samarali hal qila olmaydi, faoliyat va harakatlarni tezkor rejalashtirish, harakatlar dasturini shakllantirish, muhim shartlarni ta'kidlash, erishilgan natijalar va maqsadlar o'rtasidagi nomutanosiblikni baholash va zarur tuzatishlarni amalga oshirishga qodir emas.

O'smirlar orasidagi zo'ravonlikning kuchayishi har xil sabablardan kelib chiqadi. Bularga misol qilib bolaning boshqalar ustidan hukmronlik yoki nazorat qilish istagining kuchayishi, oilada kamsitilish tufayli boshqalarga nisbatan nafratning uyg'onishi, hamdardlik, qullab-quvvatlashning yo'qligi, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, bolada yetarli darajada oilasi tomonidan berilgan tushunishlik hissi yo'qligi kabi muammolardan paydo bo'ladi.

Zo'ravonlikning salbiy oqibatlariga: jismoniy jarohatlar, travmadan keyingi stress, bolalarning ruhiy rivojlanishdan orqada qolishi, o'z-o'ziga zarar yetkazish, his-tuyg'ularni ifodalashdagi qiyinchiliklar, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, agressiv xulq-atvorning shakllanishi, ijtimoiy chekinish kabi holatlar kuzatiladi.

Zo'ravonlikning oldini olishda: Ota-onalarning bolalar bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilanishi, bolalarga hurmat va mehr-muhabbatni o'rgatish, zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha profilaktika ishlarini olib borish, test, so'rovnomalardan foydalanish, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlarni cheklash, bola foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlarni doimiy tekshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Zo'ravonlik qurboni bo'lgan o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatish, zo'ravonlik holatlarini aniqlash va jazolash uchun qonunlarni kuchaytirish, qurbonlarni himoya qilish, jabrlanuvchilarda qolgan salbiy oqibatlar bilan ishlash, doimiy nazoratda bo'lishini ta'minlash ruhiy holatning tiklanishiga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlarga misol qilib norvegiyalik psixolog Dan Olweus maktablardagi zo'ravonlik muammosini ilmiy o'rgangan dunyodagi birinchi olim hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida: 1982-yilda Norvegiyada uch nafar o'smirning bullying tufayli o'z joniga qasd qilishi uning ishlariga davlat miqyosida e'tibor qaratilishiga sabab bo'ldi. Olim o'z tadqiqotlari asosida maktab muhitini o'zgartirishga qaratilgan dastur ishlab chiqdi.

Bu dastur maktab, sinf va individual darajadagi choralarni o'z ichiga oladi. Norvegiyadagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, dastur joriy etilgandan so'ng maktablardagi zo'ravonlik holatlari 30% dan 50% gacha kamaygan. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida o'g'rilik, bezorilik va dars qoldirish kabi salbiy holatlar ham qisqargan. Hozirda uning Olweus Bullying Questionnaire so'rovnomasi va metodikasi bugungi kunda butun dunyoda bullingga qarshi kurashning "oltin standarti" hisoblanadi.

O'smirlar o'rtoqlari orasida qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi holatlar ko'pincha raqobatga va ayrim hollarda zo'ravonlik holatlarini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy muhit, atrofdagilarning, o'qituvchilarning munosabati o'smirlarda salbiy yoki ijobiy xulq-atvorning, hissiyotlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Salbiy xulq-atvorning shakllanishi jamiyat bilan aloqa o'rnatishda qiyinchiliklar tug'diradi. O'smirlik davrida hissiy o'zgarishlar tez-tez sodir bo'ladi va o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati pasayadi. Empatiyaning pasligi esa boshqalarni tushunmaslikka va ularning fikrini e'tiborsiz qoldirishga olib keladi.

Zo'ravonlik hissining namoyon bo'lish shakllari:

1. Jismoniy zo'ravonlik- eng keng tarqalgan turi bo'lib: urish, itarish, jarohat yetkazish, jiddiy harakatlar qilish kabilar misol bo'ladi. Bunday holat ko'pincha o'zining kuchini ko'rsatish, his-tuyg'ularni boshqara olmaslik natijasida sodir bo'ladi va jiddiy asoratlarga olib keladi.

2. Og'zaki zo'ravonlik- qo'l tekkizmasdan beriladigan ruhiy jarohat bo'lib: haqorat qilish, masxara qilish, qadr-qimmatini yerga urish, xo'rlash va doimiy tanqidlar kiradi. Bu turdagi zo'ravonlik, odatda, maktablarda tez-tez uchraydi. Jabrlanuvchida uzoq muddat qo'rquv hissi shakllanishiga olib keladi.

3. Ijtimoiy ajratish- bu noaniq, ammo, ko'p uchraydigan zo'ravonlik turi hisoblanadi. Bunda tashqi ko'rinish, millat ajratish, dinini muhokama qilish, guruhga, jamiyatga qo'shmaslik kabilar kiradi va oqibatda ijtimoiy cheklanish ya'ni jamiyatdan ajralish holatlari vujudga keladi.

Barcha bolalar o'z hayotidagi har qanday inson — xoh u ota-ona, o'qituvchi, do'st, sevgan insoni yoki notanish kimsa bo'lsin — ular tomonidan yetkaziladigan zo'ravonlikdan himoyalaniş huquqiga ega.

Bolalar duch keladigan zo'ravonlikning barcha shakllari, harakatning xarakteri yoki og'irlik darajasidan qat'i nazar, zararli hisoblanadi. Zo'ravonlik keltirib chiqaradigan keraksiz azob va og'riqdan tashqari, u bolalarning o'z qadr-qimmatini his qilishiga putur yetkazadi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Shunga qaramay, bolalarga nisbatan zo'ravonlik ko'pincha zaruriyat yoki muqarrar holat sifatida oqlanadi. Aybdorlarning yaqinligi sababli bunga ko'z yumilishi yoki oqibatlari ahamiyatsiz deb hisoblanishi mumkin. Sharmandalik yoki o'ch olishdan qo'rqish hissi tufayli zo'ravonlik haqidagi xotiralar yashirilishi yoki xabar qilinmasligi mumkin.

Aybdorlarning jazosiz qolishi va zo'ravonlikka uzoq vaqt duchor bo'lish qurbonlarda bu holatni normal deb qabul qilish tushunchasini shakllantirishi mumkin. Shu tariqa, zo'ravonlik niqoblanadi, bu esa uning oldini olish va unga chek qo'yishni qiyinlashtiradi.

O'smirlik davri shaxsning jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanish bosqichi bo'lib, aynan shu davrda zo'ravonlikka duch kelish yoki zo'ravon xatti-harakatlarga moyillik kuchayishi mumkin. O'zbekistonda so'nggi yillarda bolalar va o'smirlar o'rtasida zo'ravonlik holatlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar muammoning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, oilaviy zo'ravonlik, maktab muhitidagi psixologik bosim, hamda kiberzo'ravonlik o'smirlar ruhiy salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Davlat tomonidan bu borada muhim huquqiy va tashkiliy choralar ko'rilmoqda.

Jumladan, bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi, himoya orderlari tizimi joriy etildi, maktablarda psixologik xizmatlar kuchaytirildi hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda profilaktik dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bu chora-tadbirlar zo'ravonlikni kamaytirish va o'smirlar uchun xavfsiz ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, muammoni to'liq bartaraf etish uchun faqat huquqiy mexanizmlar yetarli emas. Oilaviy tarbiya madaniyatini oshirish, ota-onalar mas'uliyatini kuchaytirish, o'smirlarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish, shuningdek, internet makonida xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

UNICEF ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 1–14 yoshdagi bolalarning deyarli ikki nafaridan biriga yaqin (taxminan 2/3) ma'lum muddatlarda zo'ravonlik qo'llanilgan holatlar qayd etilgan. Shu bilan birga maktablarda tahqirlash ham keng tarqalgan — bir qancha so'rovlar bir oy ichida 1/4 bolaga taalluqli ekanligini ko'rsatadi. Global miqyosda UNICEFning 2024-yilgi hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda 18 yoshgacha bo'lgan qizlar va ayollarning taxminan 1/8 qismi jinsiy zo'ravonlik yoki zo'rlashning qurboni bo'lgan; agar no-kontakt shakllar ham kiritilsa, bu nisbat 1/5 ga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YOSH OLIMLAR
2. ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/yo
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Dan_Olweus
4. Website: econferenceseries.com
5. <https://cyberleninka.ru/>
6. <https://www.unicef.org/>
7. <https://kun.uz>